

TASAVVUF TARIQATLARINING QORAQALPOQ XALQI KONTEKSTIDA TA'LIMOTI VA AMALIYOTI

M.J.Atamuratova – katta o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ДОКТРИНА И ПРАКТИКА СУФИЗМА В КОНТЕКСТЕ КАРАКАЛПАКСКОГО НАРОДА

М.Дж.Атамуратова – старший преподаватель

Нукусский государственный педагогический институт имени Аджинияза

DOCTRINE AND PRACTICE OF SUFISM IN THE CONTEXT OF THE KARAKALPAK PEOPLE

M.J.Atamuratova – senior teacher

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch soʻzlar: tasavvuf, tariqat, Qoraqalpoq xalqi, Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya, murshid-murid, zikr.

Rezyume. Maqolada Yassaviya, Kubroviya va Naqshbandiya tariqatlarining Qoraqalpoq xalqining ma'naviy hayotiga ko'rsatgan ta'siri ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tasavvuf ta'limoti faqat diniy-mistik hodisa sifatida emas, balki qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi, axloqiy me'yorlarni legitimlashtiruvchi hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi sotsiomadaniy institut sifatida talqin etiladi.

Ключевые слова: суфизм, тарикат, каракалпакский народ, Яссавия, Кубравия, Накшбандия, муршид-мюрид, зикр.

Резюме. В статье рассматриваются социально-философские механизмы влияния суфийских тарикатов Яссавийя, Кубравийя и накшбандийя на духовную жизнь каракалпакского народа. В качестве методологической основы использованы аксиологический, социокультурный и историко-сравнительный подходы, дополненные элементами герменевтического анализа, что позволяет интерпретировать суфийское наследие как практикуемую форму социальной регуляции.

Key words: sufism, tariqa, Karakalpak people, Yassaviya, Kubraviya, Naqshbandiya, murshid-murid, dhikr, ziyarat.

Summary. This article examines the socio-philosophical mechanisms through which the Sufi orders of Yassaviya, Kubraviya, and Naqshbandiya have influenced the spiritual life of the Karakalpak people. The study applies axiological, sociocultural, and historical-comparative approaches, supported by elements of hermeneutic analysis, to interpret Sufi teachings as lived social practices.

Kirish. Globallashuv, axborot oqimlarining tezlashuvi va madaniy-ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi sharoitida jamiyatning ma'naviy barqarorligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy birdamlik, axloqiy me'yorlar va milliy identiklikning mustahkamlanishi kabi jarayonlarda qadriyatlar tizimining tayanch manbalarini ilmiy tahlil qilish ehtiyoji ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, tasavvuf tariqatlari Qoraqalpoq xalqi ma'naviy hayotida faqat diniy-mistik hodisa sifatida emas, balki axloqiy me'yorlarni shakllantiruvchi, ijtimoiy munosabatlarni uyg'unlashtiruvchi va tarixiy xotirani saqlovchi sotsiomadaniy institut sifatida ham namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qoraqalpoq xalqining ma'naviy madaniyati doirasida tasavvufiy merosni o'rganish bo'yicha keng qamrovli ilmiy asarlarga asoslanadi.

Tasavvuf tariqatlari faoliyatining nazariy asoslari J.S.Triningem [1] va A.Shimmel [2] kabi jahon sharqshunosligi ustozlarining fundamental asarlarida yaratilgan. Markaziy Osiyo mintaqasi miqyosida islom institutlari va tasavvuf jamoalarining o'ziga xos xususiyatlari B.Bobojonov [3] va N.Komilovlarning [4] tadqiqotlarida batafsil yoritilgan bo'lib, ularda

tariqatlarning an'anaviy shakllardan ijtimoiy-siyosiy tuzilmalarga aylanish jarayoni tahlil qilingan.

Eng muhim tarixiy-etnografik qatlam S.P.Tolstov [5] va G.P.Snesarev [6] asarlari bilan ifodalanadi. Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi doirasida ular Amudaryo quyi oqimidagi avliyolar kulti, marosim amaliyotlari va islomgacha bo'lgan e'tiqodlarning "qoldiqlari"ni batafsil tasvirlab berganlar. Bu qoraqalpoq tasavvufining sinkretik tabiatini tushunishga imkon beradi. M.Karlibayev [7], A.Idrisov [8], M.Yakubov [9], Q.Jarimbetovlarning [10] tadqiqotlari qoraqalpoqlarining ijtimoiy tuzilishida eshonlarning rolini aniqlash va qoraqalpoq adabiyotida - Berdaq hamda Ajiniyoz ijodida tasavvuf g'oyalarining ("sabr-qanoat", "ruhiy poklanish" falsafasi) aks etishini kuzatish imkonini berdi.

Mazkur maqolada tasavvuf tariqatlarining Qoraqalpoq xalqi kontekstida ta'limoti va amaliyotini tahlil qilish uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Metodologiya quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Aksiologik yondashuv, sotsiomadaniy, tarixiy-qiyyosiy, tizimli yondashuv. Mazkur metodologik majmua natijasida tasavvuf tariqatlari Qoraqalpoq xalqi ma'naviy hayotida shaxs tarbiyasi, jamoaviy birdamlik va ijtimoiy barqarorlikni

ta'minlovchi sotsiomadaniy resurs sifatida izohlandi hamda ularning zamonaviy sharoitdagi transformatsiya omillari konseptual darajada asoslandi.

Natijalar va muhokama: Tasavvuf ta'limoti musulmon mamlakatlari xalqlarining ijtimoiy-falsafiy hamda madaniy-ma'naviy hayotida keng tarqalgan, mazmunan murakkab va ichki tafovutlarga boy g'oyaviy oqimlardan biri hisoblanadi. Tasavvuf tarixida ko'plab maktablar va tariqatlar shakllangan bo'lib, ularning har biri muayyan shayx yoki pir nomi, shuningdek diniy-falsafiy qarashlari va amaliy yo'nalishiga ko'ra turli tarmoqlarga ajralgan. Jumladan, J.S.Trimingem tariqatlar keng tarqalgan besh hudud doirasida 111 ta guruhni qayd etgan [11:76]. Shu bilan birga, tasavvuf tariqatlari umumiy holda shariat talablaridan chetga chiqmagan, Qur'oni karim va hadisga tayangan, biroq amaliyot shakllari hamda diniy-falsafiy talqinlarida bir-biridan farqlangan.

Tasavvuf dastlab arab hududlarida shakllangan bo'lsa-da, uning keyingi taraqqiyoti Markaziy Osiyo so'fiylarining ilmiy-amaliy faoliyati bilan bog'liq ravishda jadallashdi. Ayniqsa, mintaqada tasavvuf an'alarining tarqalishida Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy va Najmiddin Kubro nomlari bilan bog'liq tariqatlar alohida o'rin tutadi.

Tasavvufdagi mashhur yo'nalishlardan biri Xo'ja Ahmad Yassaviy asos solgan Yassaviya tariqatidir. U Markaziy Osiyoda islomning ommalashuvida muhim omil bo'lib, ta'limotning turkiy tilda targ'ib etilgani sababli ayniqsa turkiy xalqlar orasida keng qabul qilingan. Yassaviylikda zohidlik, xilvat va jahriy zikr amaliyotlariga alohida e'tibor qaratilishi tariqatning oddiy xalq orasidagi ta'sirchanligini oshirgan.

Yassaviya tariqatida, asosan, so'fiylikning marosim-amaliy jihatlari yetakchi yo'nalishga aylangan. Ahmad Yassaviy an'anaviy so'fiylikdagi kabi insonni axloqiy kamolotga yetkazish hamda Haqqa yaqinlashish yo'lida muayyan bosqichlar va "yo'l odoblari"ni ta'kidlaydi. Yassaviya shayxlari ko'pincha xalq orasida ustoz, pand-nasihat beruvchi va tabib sifatida e'tirof etilgani esa tariqat g'oyalarining tez tarqalishiga ijtimoiy zamin yaratgan.

Yassaviy ta'limotida "haqiqat" holati nafsning jilovlanishi, qalbning poklanishi, dunyoviy manfaatlar (mansab, shon-shuhrat, nafsni istaklar)dan voz kechish va Allohga chin muhabbat bilan bog'lanish darajasi sifatida tushuntiriladi. Bu bosqich solikning borliqning ichki mazmuniga yetish jarayonini ifodalovchi ontologik daraja bo'lib, Ahmad Yassaviy uni "Haqni ko'ngilda ko'rish" tarzida obrazli ifodalaydi.

Ahmad Yassaviyning turkiy tilda bitilgan "Hikmat"lari ("Devoni hikmat") zohidlik va axloqiy pand-nasihat ruhida she'riy to'plam sifatida u tashkil etgan jamoaning g'oyaviy asosini belgilagan. U tasavvufning ulug' peshvolaridan biri bo'lib, yassaviya tariqatiga asos solgani hamda turkiy tilda

sodda va xalqchil ruhdagi so'fiyona adabiyotni boshlab bergani sababli islom olamida e'zozlanadi [12:333]. Yassaviya ta'limoti oddiy xalq tushunadigan til, hikmatlar va she'riy pand-nasihatlar orqali yoyilgani bois, qoraqalpoq muhitida baxshichilik, dostonchilik, maqol va hikmatlarning ma'lum qatlami yassaviya ruhiga yaqin mazmunda shakllanganini ko'rish mumkin.

Shuningdek, yassaviya an'analari mahalliy qadimiy tasavvurlar bilan muayyan darajada sintezlashgan, pirlar va avliyolarni e'zozlash, ziyorat joylariga hurmatning kuchayishi, "muqaddas makon" haqidagi tasavvurlarning kengayishi shular jumlasidandir. Natijada Yassaviya tariqati qoraqalpoq jamiyatida tasavvufning eng ommalashgan va xalqchil ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'lgan.

Vatanimiz hududida shakllanib, islom olamida keng yoyilgan tariqatlardan yana biri Kubraviya tariqatidir. Ushbu tariqat XII–XIII asrlarda Xorazmda vujudga kelgan bo'lib, uning asoschisi Najm ad-Din Kubro (1145–1221) hisoblanadi. Kubraviya, ayniqsa, Qoraqalpog'iston bilan chegaradosh Xorazm mintaqasida keng tarqalib, mintaqaning ruhiy-ma'naviy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Kubraviya ta'limotida ruhiy-ma'naviy kamolotga yo'naltirilgan chuqur mistik tajribaga alohida urg'u beriladi. Najm ad-Din Kubroga nisbat beriladigan "latoyif" (nozik ruhiy holatlar) nazariyasi doirasida ranglar, nur va ichki idrok bilan bog'liq tajribalarni talqin etish, shuningdek, qalb tarbiyasini bosqichma-bosqich shakllantirish kabi unsurlar muhim o'rin tutadi. Kubraviya tariqati tarixda mo'g'ullar istilosi davrida ma'naviy-irodaviy qarshilik ruhini namoyon etgani, shu yo'lda shahid bo'lgan vakillari bilan ham tanilgan.

Shayx Najm ad-Din Kubro kubraviya tariqatida solikning (tariqat yo'lovchisining) ruhiy-axloqiy kamoloti va ma'rifatga yetishini ta'minlaydigan o'nta asosiy tamoyilni tizimlashtiradi. U "Risola at-turuq" ("Tariqatlar risolasi") hamda "Al-usul al-ashara" ("O'nta usul") asarlarida so'fiylar tarbiyasi, nafsni poklash va qalbni sayqallash jarayonlari aynan shu talablar orqali bosqichma-bosqich amalga oshirishini ta'kidlaydi [13:8]. Kubraviya falsafasida "komillik saboqlari"ning kuchli bo'lishi uni xalq ongidagi komil inson ideali bilan yaqinlashtirgan. Shu ma'noda, qoraqalpoq folklorida uchraydigan komil inson timsollari hamda avliyolar va pirlar kultiga doir tasavvurlarda kubraviya an'alarining ayrim izlarini kuzatish mumkin. Umuman olganda, kubraviya o'z davrida Movarounnahr, Xuroson va Hindiston hududlarida yashagan musulmon xalqlarning madaniy, ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviy hayotida muayyan darajada aks etgan.

Markaziy Osiyoda keng tarqalgan yana bir ta'sirchan ruhiy-ma'rifiy yo'nalish – Naqshbandiya tariqatidir. U XIV asrda Bahouddin Naqshband

tomonidan asos solingan boʻlib, mintaqada eng nufuzli tariqatlardan biriga aylangan. Naqshbandiya avvalo oʻtroq aholi orasida keng yoyilgan boʻlsa-da, qoraqalpoq xalqi yashagan ijtimoiy-madaniy muhitga ham sezilarli taʼsir koʻrsatgan.

Naqshbandiya taʼlimotida Yassaviylikdan farqli ravishda xufiy (tinch) zikr ustuvor sanaladi. Unda shariat talablariga qatʼiy amal qilish, ijtimoiy hayotda esa faollik va masʼuliyat tamoyillarini ilgari surish alohida ahamiyat kasb etadi. Tariqatning “Dil ba yoru dast ba kor” (Diling Alloh bilan, qoʻl ish bilan band boʻlsin) shiori ruhiy poklanish bilan birga mehnatsevarlik, halollik va tartib-intizomni targʻib qiladi. Mazkur jihatlar qoraqalpoq muhitida mehnat madaniyati, qoidalarga hurmat va jamiyatda tartibni qadrlash kabi qarashlarning shakllanishiga maʼlum darajada xizmat qilgan.

Naqshbandiya taʼlimotining asosini taqdir azalga ishonch, ilm oʻrganishga ragʻbat, zoʻriy va botiniy bilimni uygʻunlashtirish, kasb-hunar egallash hamda halol mehnat bilan rizq topishga daʼvat etish tashkil etadi. Bahouddin Naqshbandiy anʼanasida baland ovozda zikr qilish, chekinish (xilvat), sargardon darvishlik, musiqa va qoʻshiqlar (samoʻ) bilan ommaviy yigʻinlar oʻtkazish kabi amaliyotlar ustuvor boʻlmagan. Naqshbandiya talqiniga koʻra, Haqqa boʻlgan intilish sokin zikrlar, jumladan jamoaviy zikrlar orqali amalga oshirilishi lozim. Uning qarashicha, “soʻfiylik” shaxsdan shaxsga oddiy oʻtadigan holat emas, balki Allohning inoyati bilan beriladigan maqom sifatida tushuniladi [14:246].

Naqshbandiya tariqatining poklik, mehnatsevarlik va odob-axloqni targʻib etuvchi gʻoyalari xalqning maʼnaviy hayotiga sezilarli taʼsir koʻrsatgani ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi. Qoraqalpoq diniy ulamolari va ruhoniylar muhitida ham naqshbandiya keng tarqalgan hamda nufuzli yoʻnalishlardan biri boʻlgan [15:54]. Biroq mintaqada yassaviya va kubraviya anʼanalari ham muayyan darajada saqlanib, turli kanallar orqali taʼsir koʻrsatgani bois, barcha ulamolarni faqat naqshbandiyaga mansub tarzda umumlashtirish har doim ham ilmiy jihatdan toʻliq asosli emas.

Xoʻja Ahmad Yassaviyning mashhur shogirdlaridan biri Sulaymon Boqirgʻoniy (Sulayman-Ota, Hakim ota) yassaviya taʼlimotini Dashti Qipchoq, Xorazm va Orolboʻyi atrofida yoyishga hissa qoʻshgan yetuk vakillardan biri sifatida tilga olinadi. Sulaymon Boqirgʻoniy (1091–1186) turkiy avliyo, afsonaviy soʻfiy shayx, Markaziy Osiyoda islom targʻibotiga katta hissa qoʻshgan yirik namoyanda hamda Ahmad Yassaviy maktabining koʻzga koʻringan vakillaridan biri hisoblanadi [16:534].

Sulaymon Boqirgʻoniy turkiy xalqlarning oʻrta asrlardagi maʼnaviy uygʻonish jarayonlari bilan bogʻliq holda yirik mutafakkir sifatida eʼtirof etiladi. U Janubiy Orolboʻyi hududida yashagan va bu

yerlarga koʻchib kelgan qipchoq-qangli, qipchoq hamda qoʻngʻirot guruhlarida orasida tasavvufiy gʻoyalarni targʻib qilgan, musulmon odobnomasi, shariat meʼyorlari va diniy qoidalarni mustahkamlashga xizmat qilgan maʼnaviy yetakchi sifatida talqin qilinadi. Shu bois xalq xotirasida Hakim ota Janubiy Orolboʻyi turkiylarining, jumladan qoraqalpoq xalqining ruhiy piri sifatida ham tilga olinadi.

Sulaymon Boqirgʻoniy ijodida soʻfiylik gʻoyalari – ilohiy ishq, taqvo, sabr-toqat, nafsni tiyish va ruhiy poklanish mavzulari ustuvor oʻrin egallaydi. Ushbu asarlar turkiy xalqlar orasida, shu jumladan qoraqalpoq muhitida ham keng tarqalib, diniy-maʼnaviy tasavvurlar va axloqiy qarashlarning shakllanishiga maʼlum darajada taʼsir koʻrsatgan.

Akademik S.Kamolovning taʼkidlashicha, Sulaymon Boqirgʻoniy “Boqirgʻoniy kitobi”, “Biybi Maryam kitobi”, “Qissasi Ibrohim Halil”, “Oxirzamon kitobi” kabi asarlar hamda koʻplab sheʼr va dostonlarida ilgari surgan falsafiy gʻoyalari orqali tasavvuf taʼlimotining rivojiga munosib hissa qoʻshgan va uni turkiy xalqlar orasida keng yoygan. Bu asarlarda ilohiy ishq, taqvodorlik, sabr-toqat va ruhiy poklanish mavzulari markaziy oʻrinni egallashi, ularning qoraqalpoqlar diniy va maʼnaviy hayotiga sezilarli taʼsir koʻrsatgani ham qayd etiladi [17:29].

Sulaymon Boqirgʻoniy islom maʼrifatini Allohni tanish va Unga yaqinlashish bilan bogʻliq maʼnaviy-axloqiy jarayon sifatida talqin qiladi. U oliy muhabbatni, avvalo, Allohga boʻlgan muhabbat deb tushuntirar ekan, uning amaliy-ijtimoiy davomiyligi sifatida insonlarga mehr-muhabbat koʻrsatish zarurligini alohida urgʻulaydi. Hakim ota nazarida tariqat yoʻli va uning bosqichlari komil insonni tarbiyalashga xizmat qiluvchi, maʼnaviy najotga eltuvchi yoʻl sifatida qadrlanadi. Shuningdek, uning hikmatlarida oʻzi yashagan davr ijtimoiy voqeligidagi tengsizlik, nohaqlik va adolatsizlik kabi illatlar tanqid qilinib, bunday holatlarga masʼul shaxslarni axloqiy ogohlantirish (oxirat masʼuliyati) vositasida tarbiyalash gʻoyasi ilgari suriladi.

Tasavvuf tariqatlarining markazida shaxsning ichki kamoloti, axloqiy poklanish va ruhiy intizom turadi. Bu jarayonda taʼlimot “faqat eʼtiqod” emas, balki amaliy-axloqiy dastur sifatida namoyon boʻladi. Tariqat doirasida insonning oʻzini tarbiya qilishi gʻoyasi *uch asosiy yoʻnalishda* koʻzga tashlanadi. Birinchidan, adab tushunchasi orqali, yaʼni u tariqatning ichki intizomi boʻlib, muomala madaniyati, hurmat, sabr, nazokat, vaʼdaga vafo, oʻzini tiyish kabi meʼyorlarni mustahkamlaydi. Jamiyat miqyosida esa adab turmush odobining barqaror standartiga aylanishi mumkin. Ikkinchidan, nafsni tiyish va riyozat. Riyozat shaxsiy istaklarni boshqarish, meʼyor va masʼuliyatni kuchaytirish, “men”ni ijtimoiy burch bilan muvozanatlashtirishga

xizmat qiladi. Ijtimoiy-falsafiy jihatdan bu jarayon fuqarolik madaniyatiga mos axloqiy o'zini nazorat qilish mexanizmini shakllantiradi. Uchinchidan, komillik ideali. "Komil inson" konsepsiyasi tariqatda shaxsning nafaqat ruhiy, balki ijtimoiy mas'uliyatli bo'lishini ham nazarda tutadi. Demak, tariqat ta'limotida komillik – individual darajadagi ruhiy holat emas, balki jamiyatda axloqiy foyda keltiradigan ijtimoiy sifatlar majmuasidir.

Tasavvuf tariqatlarining amaliy mexanizmlaridan eng muhimlaridan biri – *murshid–murid* munosabatidir. Bu munosabatda shaxsning ichki dunyosi, xulq-atvori, niyati va ijtimoiy muomalasi bir butun holda tarbiya qilinadi. Murshid obrazining jamiyatdagi roli ham ramziy, ham amaliy xarakterga ega, u axloqiy me'yorlarning "tirik namunasi" sifatida ishlaydi.

Tariqat amaliyotining boshqa muhim unsurlari bu *zikr amaliyoti* – ruhiy intizomni kuchaytiradigan, shaxsning o'zini nazorat qilishini mustahkamlaydigan amaliyot. Ijtimoiy o'lchamda zikr jamoaviy birdamlik va hamjihatlik tuyg'ularini kuchaytiruvchi omil sifatida ko'rinadi. Suhbat va nasihat – qadriyatlarning og'zaki uzatilishi, hayotiy misollar orqali tarbiyaning samaradorligini oshirish vositasi. *Xonaqohlar* – ma'naviy ijtimoiylashuv makoni bo'lib, u yerda odob, tartib, jamoaga hurmat kabi me'yorlar mustahkamlanadi.

Mazkur amaliyotlar natijasida tariqatlar shaxsning ichki dunyosini jamiyat talablariga uyg'unlashtiradigan "ma'naviy ijtimoiylashuv" mexanizmini vujudga keltiradi.

Qoraqalpoq jamiyatida tasavvuf tariqatlari tarixiy jarayonlar davomida mahalliy urf-odat, marosim va og'zaki ijod bilan o'zaro ta'sirga kirishgan. Bu holat tasavvufni "yot" hodisa emas, balki mahalliy

ma'naviy hayotga singib ketgan qadriyatlar tizimi sifatida talqin qilishga asos beradi. Birinchidan, tasavvufiy me'yorlar oilaviy tarbiya va mahalla muhitida axloqiy qoidalar sifatida mustahkamlangan. Kattaga hurmat, kichikka izzat, mehmonnavozlik, saxovat, sabr, halollik kabi sifatlar ko'p hollarda tasavvufiy axloq bilan uyg'un ma'noda ishlaydi.

Ikkinchidan, ziyorat amaliyoti Qoraqalpoq xalqi ijtimoiy-madaniy hayotida kollektiv xotirani tiklaydigan va ma'naviy birdamlikni kuchaytiradigan omil sifatida namoyon bo'ladi. Ziyorat joylari atrofida shakllangan rivoyatlar, "muqaddas makon" haqidagi qarashlar ijtimoiy birlashuvning ramziy asoslarini yaratadi. Uchinchidan, tasavvuf g'oyalari og'zaki ijod va adabiy meros orqali qadriyatlar sifatida tarqalgan. Axloqiy pand-nasihat, vijdon, diyonat, nafsni tiyish, adolat, sabr-qanoat kabi mavzular xalq ongida barqaror timsollarga aylangan.

Xulosa. Qoraqalpoq kontekstida tasavvuf tariqatlari "ta'limot" sifatida emas, balki "madaniy moslashgan ma'naviy amaliyot" sifatida ham faoliyat ko'rsatgan. Tasavvuf tariqatlari Qoraqalpoq xalqi ma'naviy hayotida ko'p qatlamli sotsiomadaniy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ular qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi va axloqiy me'yorlarni legitimlashtiruvchi institut; shaxs tarbiyasini ichki intizom (adab, riyozat, zikr) orqali ta'minlovchi amaliy maktab; urf-odat, marosim, ziyorat va og'zaki ijod bilan uyg'unlashgan holda kollektiv xotira hamda identiklikni mustahkamlovchi madaniy mexanizm ekanligi bilan izohlanadi.

Shu bois, tasavvuf tariqatlarining ta'limoti va amaliyoti Qoraqalpoq jamiyatida ijtimoiy integratsiya, axloqiy tartib va yoshlar tarbiyasi uchun muhim ma'naviy resurs bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar

1. Тримингэм Дж. С. Суфийские ордены в исламе. – Москва: София ИД Гелиос, 2024.
2. Шиммель А. Мир исламского мистицизма / пер. с англ. Н. И. Пригариной, А. С. Рапо. 2-е изд., испр. и доп. – Москва: ООО «Садра», 2012.
3. Бабаджанов Б.М. Возрождение деятельности суфийских групп в Узбекистане. // Центральная Азия и Кавказ. 2002. №1. – С. 91-92.
4. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: «Мовароуннахр», 2009.
5. Толстов П. Древний Хорезм. – Москва: «Полиграфкнига», 1948.
6. Снесарев Г.П. Хорезмские легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии. – Москва: «Наука», 1983. – С. 218.
7. Карлыбаев М. А. Медресе в Каракалпакии XIX – начала XX веков. – Нукус: «Билим», 2002.
8. Идрисов И. Каракум ийшанлар тарийхи. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 2023.
9. Якубов М. Бердактың философиялық дүнья танымы хақында. Бердак номидаги Қорақалпоқ Давлат Университетининг Ахборотномаси, 2009. №2.
10. Жаримбетов Қ. Ашық Зийўар. – Нөкис: 1998.
11. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – Москва: София ИД Гелиос, 2002.
12. Матмуродова М. Улуғ мутасаввуф. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2005.
13. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: «Мовароуннахр», 2009.
14. Кныш А.Д. Мусульманский мистицизм. – Москва - Санкт-Петербург: 2004.
15. Идрисов. А. Каракум ийшан тарийхи. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 2023.
16. Бартольд В. В. Хаким -Ата. Сочинения. – Москва: «Наука», 1964.
17. Камалов С. С.Бақырғаний хәм оның дәуири. Республикалық әмелий-теориялық конференция материаллары. – Нөкис: 2002.